## FARG‘ONA VILOYATI
## STATISTIKA BOSHQARMASI



# FARG‘ONA VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA’LUMOT

*2024- yil 1- fevral holatiga ko‘ra*
*(fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz)*

*Ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Davlat xizmatlari markazi ma’lumotlar bazasi asosida shakllantirildi*

So‘nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo‘llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta’minlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo‘g‘ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag‘batlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilyapti.

Jumladan, 2024-yil 1-fevral holatiga viloyatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari) 42,2 mingtani tashkil etdi (ulardan kichik korxona va mikrofirmalar 36,0 mingta). O‘tgan yilning mos davriga nisbatan faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar sonining o‘sishi 85,0 foizni (jumladan, kichik korxona va mikrofirmalar 82,8 foiz) tashkil etdi.

Korxona va tashkilotlar to‘g‘risida umumiy ma’lumotlar

*fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari, 1- fevral holatiga ko‘ra, birlikda.*



## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar

*2024- yil yanvar holatiga ko‘ra, birlikda*

### Yillar kesimida soni




### Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




2024- yil yanvar oyida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni 2020- yilning mos davri bilan solishtirilganda 33 taga ko‘payganligini ko‘rish mumkin.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar sonining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha 2020- yilning mos davri bilan solishtirilganda, mas’uliyati cheklangan jamiyatlar 79 taga ko‘paygan.

## Hududlar kesimida

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| Farg‘ona shahar | 106 | 1,5 % | Quvasoy shahar | 25 | 1,6 % |
| Qo‘qon shahar | 60 | 1,3 % | Toshloq tumani | 24 | 1,2 % |
| Uchko‘prik tumani | 34 | 1,6 % | Dang‘ara tumani | 21 | 1,1 % |
| Marg‘ilon shahar | 34 | 1,0 % | Rishton tumani | 18 | 1,0 % |
| Qo‘shtepa tumani | 32 | 2,1 % | Furqat tumani | 16 | 1,4 % |
| Oltiariq tumani | 29 | 1,3 % | Yozyovon tumani | 15 | 1,4 % |
| Quva tumani | 28 | 1,4 % | Bag‘dod tumani | 12 | 0,7 % |
| Farg‘ona tumani | 28 | 1,5 % | Beshariq tumani | 12 | 0,8 % |
| Buvayda tumani | 26 | 1,5 % | So‘x tumani | 8 | 0,7 % |
| O‘zbekiston tumani | 25 | 1,3 % | | | |

# Faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar

*2024- yil 1- fevral holatiga ko‘ra, birlikda*

## Yillar kesimida soni




## Yillar kesimida o‘sish sur’ati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi




Sanoat




Qurilish




Savdo




Tashish va saqlash




Yashash va ovqatlanish




Axborot va aloqa




Sog‘liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish




Boshqa turlar

2024- yil 1- fevral holatiga faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni so‘ngi besh yilda (30 307 ta) 11 874 taga ko‘payganni quyidagi sohalarda korxonalar sonining sezilarli ko‘paygani bilan ifodalash mumkin: savdo – 6 948 tadan 14 405 taga (o‘sish 7 457 ta), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – 1 553 tadan 1 749 taga (o‘sish 196 ta), sanoat – 6 472 tadan 7 635 taga (o‘sish 1 163 ta).

## Hududlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Farg‘ona shahar | 7 013 | Buvayda tumani | 1 785 |
| Qo‘qon shahar | 4 451 | Rishton tumani | 1 715 |
| Marg‘ilon shahar | 3 531 | Bag‘dod tumani | 1 609 |
| Oltiariq tumani | 2 280 | Quvasoy shahar | 1 597 |
| Uchko‘prik tumani | 2 125 | Qo‘shtepa tumani | 1 545 |
| Quva tumani | 1 975 | Beshariq tumani | 1 467 |
| Toshloq tumani | 1 962 | So‘x tumani | 1 167 |
| Dang‘ara tumani | 1 960 | Furqat tumani | 1 148 |
| Farg‘ona tumani | 1 897 | Yozyovon tumani | 1 081 |
| O‘zbekiston tumani | 1 873 | | |

# Yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari to‘g‘risida ma’lumotlar

*2024- yil yanvar holatiga ko‘ra, birlikda*

Yillar kesimida soni




Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

26
1,5 %

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

84
1,1 %

Sanoat

14
0,5 %

Qurilish

261
1,8 %

Savdo

18
1,2 %

Tashish va saqlash

43
1,9 %

Yashash va ovqatlanish

21
2,4 %


Axborot va aloqa

23
2,2 %

Sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

52
1,4 %

Boshqa turlar

Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib borish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo‘lmoqda.

2024- yil yanvar oyida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 542 ta bo‘lib, shundan:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar 538 ta;
- yirik korxonalar 4 tani tashkil etdi.

## Hududlar kesimida

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| Farg‘ona shahar | 99 | 1,7 % | Rishton tumani | 25 | 1,8 % |
| Qo‘qon shahar | 59 | 1,5 % | Uchko‘prik tumani | 24 | 1,4 % |
| Marg‘ilon shahar | 34 | 1,1 % | Bag‘dod tumani | 21 | 1,2 % |
| Toshloq tumani | 33 | 1,8 % | O‘zbekiston tumani | 18 | 1,3 % |
| Quvasoy shahar | 31 | 2,4 % | Farg‘ona tumani | 16 | 1,7 % |
| Quva tumani | 29 | 1,5 % | Beshariq tumani | 14 | 1,6 % |
| Oltiariq tumani | 28 | 1,7 % | Yozyovon tumani | 12 | 0,9 % |
| Buvayda tumani | 28 | 1,8 % | So‘x tumani | 12 | 1,0 % |
| Dang‘ara tumani | 26 | 1,7 % | Furqat tumani | 8 | 0,8 % |
| Qo‘shtepa tumani | 25 | 1,6 % | | | |

# 5 Faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari to‘g‘risida ma’lumotlar

*2024- yil 1- fevral holatiga ko‘ra, birlikda*

Yillar kesimida soni




Yillar kesimida o‘sish sur’ati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish



Boshqa turlar

Faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2024- yil 1- fevral holatiga 36,0 mingtaga yetib, 2020- yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 120,9 foizni tashkil etdi (6,2 mingta). Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo‘ldi: savdo – 40,0 foiz, sanoat – 21,2 foiz, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi – 4,7 foiz, qurilish – 8,1 foiz, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar – 6,1 foiz, tashish va saqlash – 4,3 foiz, axborot va aloqa – 2,5 foiz, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish – 2,9 foiz, boshqa turlari –10,2 foiz.

## Hududlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Farg‘ona shahar | 5 930 | Buvayda tumani | 1 524 |
| Qo‘qon shahar | 3 879 | Quvasoy shahar | 1 410 |
| Marg‘ilon shahar | 3 168 | Rishton tumani | 1 385 |
| Oltiariq tumani | 1 997 | Bag‘dod tumani | 1 310 |
| Uchko‘prik tumani | 1 877 | Qo‘shtepa tumani | 1 302 |
| Toshloq tumani | 1 736 | Beshariq tumani | 1 180 |
| Dang‘ara tumani | 1 713 | So‘x tumani | 996 |
| Quva tumani | 1 655 | Furqat tumani | 944 |
| Farg‘ona tumani | 1 574 | Yozyovon tumani | 871 |
| O‘zbekiston tumani | 1 570 | | |

# Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari to‘g‘risida ma’lumotlar

*2024- yil yanvar holatiga ko‘ra, birlikda*

Yillar kesimida soni




Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

26
1,5 %

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

84
1,1 %

Sanoat

14
0,5 %

Qurilish

259
1,8 %

Savdo

18
1,2 %

Tashish va saqlash

43
1,9 %

Yashash va ovqatlanish

21
2,4 %


Axborot va aloqa

23
2,2 %

Sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

50
1,4 %

Boshqa turlar

Mamlakat iqtisodiyotining “sog‘lomligi”ni baholashning muhim omili – kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko‘rsatishi bo‘lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o‘zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko‘rsatkichidir.

Shunda, 2024- yil yanvar oyida savdo sohasida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2020-yilning mos davriga nisbatan 227 tadan 259 taga (o‘sish 32 taga), yashash va ovqatlanish – 20 tadan 43 taga (o‘sish 23 taga) ko‘paydi.

## Hududlar kesimida

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| Farg‘ona shahar | 98 | 1,7 % | Toshloq tumani | 24 | 1,4 % |
| Qo‘qon shahar | 59 | 1,5 % | O‘zbekiston tumani | 24 | 1,5 % |
| Marg‘ilon shahar | 34 | 1,1 % | Dang‘ara tumani | 21 | 1,2 % |
| Uchko‘prik tumani | 33 | 1,8 % | Rishton tumani | 18 | 1,3 % |
| Qo‘shtepa tumani | 31 | 2,4 % | Furqat tumani | 16 | 1,7 % |
| Oltiariq tumani | 29 | 1,5 % | Yozyovon tumani | 14 | 1,6 % |
| Quva tumani | 28 | 1,7 % | Beshariq tumani | 12 | 1,0 % |
| Farg‘ona tumani | 28 | 1,8 % | Bag‘dod tumani | 11 | 0,8 % |
| Buvayda tumani | 25 | 1,6 % | So‘x tumani | 8 | 0,8 % |
| Quvasoy shahar | 25 | 1,8 % | | | |

# Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik biznes subyektlari to‘g‘risida ma’lumotlar

*2024- yil 1- fevral holatiga ko‘ra, birlikda*

Yillar kesimida soni




Yillar kesimida o‘sish sur’ati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Hududiy kesimda eng ko‘p kichik biznes subyektlari Farg‘ona shahrida (16,4 foiz), Qo‘qon shahri (10,7 foiz), Marg‘ilon shahri (8,8 foiz), Oltiariq (5,6 foiz) va Uchko‘prik (5,2 foiz) tumanlarida faoliyat ko‘rsatmoqda. Ushbu hududlarda jami kichik biznes subyektlari sonining 50 foizdan ortig‘i faoliyat ko‘rsatmoqda.

Ma’lumki ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg‘or faoliyat yuritmoqda.

## Hududlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Farg‘ona shahar | 5 867 | Buvayda tumani | 1 517 |
| Qo‘qon shahar | 3 844 | Quvasoy shahar | 1 403 |
| Marg‘ilon shahar | 3 157 | Rishton tumani | 1 379 |
| Oltiariq tumani | 1 994 | Bag‘dod tumani | 1 300 |
| Uchko‘prik tumani | 1 852 | Qo‘shtepa tumani | 1 297 |
| Toshloq tumani | 1 726 | Beshariq tumani | 1 176 |
| Dang‘ara tumani | 1 705 | So‘x tumani | 993 |
| Quva tumani | 1 645 | Furqat tumani | 942 |
| O‘zbekiston tumani | 1 563 | Yozyovon tumani | 869 |
| Farg‘ona tumani | 1 559 | | |

## Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2024- yil 1- fevral holatiga ko‘ra, birlikda*

### Hududlar kesimida

| | |
|---|---|
| So‘x tumani | 143 |
| Farg‘ona shahar | 137 |
| Toshloq tumani | 134 |
| Qo‘shtepa tumani | 120 |
| Dang‘ara tumani | 119 |
| Farg‘ona tumani | 116 |
| Oltiariq tumani | 106 |
| Quva tumani | 106 |
| Quvasoy shahar | 100 |
| Yozyovon tumani | 92 |
| Bag‘dod tumani | 87 |
| Buvayda tumani | 79 |
| Beshariq tumani | 75 |
| Uchko‘prik tumani | 74 |
| O‘zbekiston tumani | 66 |
| Rishton tumani | 61 |
| Qo‘qon shahar | 51 |
| Marg‘ilon shahar | 44 |
| Furqat tumani | 39 |




O‘zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning chuqur o‘ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to‘liq ta’minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo‘nalishlardan biriga aylandi.



# 9 Sanoat yo‘nalishida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2024- yil 1- fevral holatiga ko‘ra, birlikda*

## Hududlar kesimida

| | |
|---|---|
| Qo‘qon shahar | 927 |
| Farg‘ona shahar | 870 |
| Marg‘ilon shahar | 723 |
| Uchko‘prik tumani | 555 |
| O‘zbekiston tumani | 445 |
| Dang‘ara tumani | 439 |
| Rishton tumani | 388 |
| Toshloq tumani | 355 |
| Quva tumani | 354 |
| Bag‘dod tumani | 335 |
| Buvayda tumani | 330 |
| Oltiariq tumani | 321 |
| Farg‘ona tumani | 275 |
| Qo‘shtepa tumani | 268 |
| Quvasoy shahar | 239 |
| Beshariq tumani | 214 |
| Yozyovon tumani | 204 |
| So‘x tumani | 197 |
| Furqat tumani | 196 |

| | |
|---|---|
| 2024 | 7 635 |
| 2023 | 10 070 |
| 2022 | 10 033 |
| 2021 | 9 193 |
| 2020 | 7 708 |

Sanoat tarmog‘i iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo‘lgan tarmoqlardan hisoblanadi. So‘nggi besh yil ichida faoliyat ko‘rsatayotgan sanoat korxonalari sonining o‘sish sur’ati 118,0 foizni tashkil etdi.

Sanoat korxonalari soni jami korxona va tashkilotlarning 18,1 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 95,1 foizini ishlab chiqarish sanoati (o‘tgan yil ning mos davriga nisbatan o‘sish 75,2 foiz), 2,4 foizini tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (o‘sish 91,2 foiz), 1,2 foizini suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish (o‘sish 78,1 foiz) va 1,3 foizini elektr, gaz bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash (o‘sish 104,3 foiz) tashki etgan.

| | |
|---|---|
| Ishlab chiqarish sanoati | 7 263 |
| Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash | 186 |
| Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish | 89 |
| Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash | 97 |

# Qurilish faoliyati bilan shug‘ullanayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2024- yil 1- fevral holatiga ko‘ra, birlikda*

## Hududlar kesimida

| | |
|---|---|
| Farg‘ona shahar | 792 |
| Qo‘qon shahar | 242 |
| Marg‘ilon shahar | 234 |
| Uchko‘prik tumani | 163 |
| Oltiariq tumani | 140 |
| Toshloq tumani | 134 |
| Quva tumani | 131 |
| Farg‘ona tumani | 126 |
| Bag‘dod tumani | 122 |
| Quvasoy shahar | 102 |
| Yozovon tumani | 99 |
| Dang‘ara tumani | 98 |
| Rishton tumani | 98 |
| Qo‘shtepa tumani | 85 |
| Buvayda tumani | 84 |
| Beshariq tumani | 79 |
| O‘zbekiston tumani | 74 |
| So‘x tumani | 74 |
| Furqat tumani | 70 |

| | |
|---|---|
| 2024 | 2 947 |
| 2023 | 3 788 |
| 2022 | 3 555 |
| 2021 | 3 270 |
| 2020 | 2 907 |

O‘zbekistonda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog‘i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo‘nalishlari bo‘yicha o‘tkazilgan tahlil shuni ko‘rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo‘nalishi 53,9 foiz ulushni tashkil etib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 76,3 foiz o‘sish sur’atini tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo‘nalishi 16,1 foiz ulushni tashkil etib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 95,4 foiz o‘sish sur’atini tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo‘nalishi 30,0 foiz ulushni va 73,2 foiz o‘sish sur’atini tashkil etdi.

| | |
|---|---|
| 475 | Fuqarolik obyektlarini qurish |
| 883 | Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari |
| 1 589 | Bino va inshootlar qurish |





# 11 Savdo sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2024- yil 1- fevral holatiga ko‘ra, birlikda*

**Hududlar kesimida**

| | |
|---|---|
| Farg‘ona shahar | 1 888 |
| Qo‘qon shahar | 1 606 |
| Marg‘ilon shahar | 1 374 |
| Uchko‘prik tumani | 823 |
| Dang‘ara tumani | 740 |
| Toshloq tumani | 730 |
| Oltiariq tumani | 708 |
| Quva tumani | 683 |
| Farg‘ona tumani | 682 |
| Buvayda tumani | 665 |
| Quvasoy shahar | 633 |
| O‘zbekiston tumani | 613 |
| Qo‘shtepa tumani | 575 |
| Beshariq tumani | 497 |
| Bag‘dod tumani | 490 |
| Rishton tumani | 464 |
| Furqat tumani | 449 |
| So‘x tumani | 440 |
| Yozyovon tumani | 345 |




Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, viloyatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan har uchinchi korxona savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,7 foizi yoki 14 363 tasi kichik biznes subyektlariga to‘g‘ri keladi.

Savdo sohasining yo‘nalishlar bo‘yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo‘nalishi 58,0 foiz ulushni tashkil etgan bo‘lib, 2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda o‘sish sur’ati 86,6 foizni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo‘nalishida 32,6 foiz ulushni tashkil etib, o‘sish sur’ati 92,9 foizni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta’mirlash yo‘nalishida 9,4 foiz ulushni tashkil etib, o‘sish sur’ati 82,4 foizni tashkil etdi.

**1 353**
Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta’mirlash

**4 701**
Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo

**8 351**
Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

# Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2024- yil 1- fevral holatiga ko‘ra, birlikda*

**Hududlar kesimida**

| | |
|---|---|
| Farg‘ona shahar | 514 |
| Qo‘qon shahar | 218 |
| Rishton tumani | 148 |
| Marg‘ilon shahar | 147 |
| Oltiariq tumani | 136 |
| Bag‘dod tumani | 116 |
| Quva tumani | 112 |
| O‘zbekiston tumani | 98 |
| Farg‘ona tumani | 95 |
| Dang‘ara tumani | 85 |
| Toshloq tumani | 84 |
| Quvasoy shahar | 82 |
| Qo‘shtepa tumani | 78 |
| Buvayda tumani | 64 |
| Beshariq tumani | 63 |
| Uchko‘prik tumani | 59 |
| Furqat tumani | 56 |
| Yozyovon tumani | 34 |
| So‘x tumani | 30 |




2024- yil 1- fevral holatiga ko‘ra, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar o‘sish sur’ati 2020- yilning mos davriga nisbatan 127,4 foizni tashkil etdi. Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko‘rsatdiki:

- mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko‘ngilochar parklar yashash bo‘yicha xizmatlar yo‘nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2024- yil 1- fevral holatiga ko‘ra, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 6,6 foiz ulushini tashkil etdi;
- restoran va buyurtma bo‘yicha oziq–ovqat va ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo‘yicha xizmatlar yo‘nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasining 93,4 foiz ulushini tashkil etdi.

**146** — Yashash bo‘yicha xizmatlar

**2 073** — Oziq- ovqat va ichimliklar yetkazish bo‘yicha xizmatlar





# Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2024- yil 1- fevral holatiga ko‘ra, birlikda*

## Hududlar kesimida

| | |
|---|---|
| Farg‘ona shahar | 269 |
| Marg‘ilon shahar | 126 |
| Qo‘qon shahar | 77 |
| Buvayda tumani | 68 |
| Toshloq tumani | 43 |
| Quva tumani | 41 |
| Rishton tumani | 37 |
| Qo‘shtepa tumani | 35 |
| Oltiariq tumani | 34 |
| Beshariq tumani | 24 |
| Dang‘ara tumani | 24 |
| Bag‘dod tumani | 20 |
| Farg‘ona tumani | 20 |
| O‘zbekiston tumani | 18 |
| Quvasoy shahar | 18 |
| Uchko‘prik tumani | 12 |
| Furqat tumani | 11 |
| So‘x tumani | 10 |
| Yozyovon tumani | 5 |




2024- yil 1- fevral holatiga ko‘ra noshirlik faoliyati, kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish yo‘nalishlarida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni axborot va aloqa sohasining 13,5 foizini tashkil etib, o‘sish sur’ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 86,3 foizni tashkil etdi.

Dasturlar yaratish bo‘yicha faoliyat va teleko‘rsatuv va radioeshittirishlar hamda aloqa yo‘nalishlaridagi korxonalar soni axborot va aloqa sohasining 53,3 foizini tashkil etib, o‘sish sur’ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 64,8 foizni tashkil etdi,

Kompyuter dasturlashtirish va axborot xizmati ko‘rsatish yo‘nalishlarida esa korxonalar soni, axborot va aloqa sohasidagi korxona va tashkilotlarning 33,2 foizini tashkil etib, o‘sish sur’ati 101,4 foizni tashkil etdi.



# Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2024- yil 1- fevral holatiga ko‘ra, birlikda*

## Hududlar kesimida

| | |
|---|---|
| Farg‘ona shahar | 288 |
| Qo‘qon shahar | 141 |
| Marg‘ilon shahar | 79 |
| Farg‘ona tumani | 71 |
| Buvayda tumani | 61 |
| O‘zbekiston tumani | 59 |
| Oltiariq tumani | 55 |
| Beshariq tumani | 55 |
| Uchko‘prik tumani | 55 |
| Toshloq tumani | 53 |
| Quva tumani | 51 |
| Qo‘shtepa tumani | 47 |
| Rishton tumani | 42 |
| Dang‘ara tumani | 42 |
| Furqat tumani | 33 |
| Bag‘dod tumani | 32 |
| So‘x tumani | 31 |
| Yozyovon tumani | 23 |
| Quvasoy shahar | 14 |




Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan jami korxona va tashkilotlarning salmoqli qismi – 1 054 ta yoki 85,6 foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri kelgan.

Yo‘nalishlar bo‘yicha tahlil shuni ko‘rsatdiki:

91,5 foiz korxonalar sog‘liqni saqlash yo‘nalishiga to‘g‘ri kelib, o‘sish sur’ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 101,3 foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan ta’minlangan holda parvarishlash yo‘nalishidagi korxonalar soni 3,1 foizni tashkil etib, o‘sish sur’ati 84,4 foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan ta’minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish yo‘nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 5,4 foizini tashkil etib, o‘sish sur’ati 88,0 foizni tashkil etdi;



# Tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2024- yil 1- fevral holatiga ko‘ra, birlikda*

## Hududlar kesimida

| | |
|---|---|
| Oltiariq tumani | 332 |
| Farg‘ona shahar | 269 |
| Qo‘qon shahar | 193 |
| Marg‘ilon shahar | 99 |
| Quvasoy shahar | 74 |
| Toshloq tumani | 73 |
| O‘zbekiston tumani | 56 |
| Quva tumani | 56 |
| Farg‘ona tumani | 54 |
| Beshariq tumani | 54 |
| Dang‘ara tumani | 50 |
| Uchko‘prik tumani | 43 |
| Qo‘shtepa tumani | 37 |
| Rishton tumani | 37 |
| Buvayda tumani | 33 |
| So‘x tumani | 29 |
| Furqat tumani | 26 |
| Bag‘dod tumani | 26 |
| Yozyovon tumani | 24 |




2024- yil 1- fevral holatiga ko‘ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar jami viloyatdagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonaning 3,7 foiz ulushini tashkil etdi.

2022- yilning mos davri bilan solishtirganda tashish va saqlash xizmatlarining yo‘nalishlari bo‘yicha tahlillar shuni ko‘rsatdiki:

quruqlikdagi va quvur transporti yo‘nalishida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning o‘sish sur’ati 86,3 foizni tashkil etdi;

ombor xo‘jaligi va yordamchi transport yo‘nalishining o‘sish sur’ati 92,0 foizni;

pochta va kuryerlik yo‘nalishi 72,4 foizni tashkil etdi;

havo transporti yo‘nalishida faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar soni 42,9 foizni tashkil etdi;

suv transporti yo‘nalishidagi korxonalar soni 1 tani tashkil etdi.

| Suv transporti | Havo transporti | Pochta va kuryerlik faoliyati | Ombor xo‘jaligi va yordamchi transport faoliyati | Quruqlikdagi va quvur transporti |
|---|---|---|---|---|
| 1 | 3 | 21 | 390 | 1 150 |

## Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha umumiy ma’lumot

*2024- yil 1- fevral holatiga ko‘ra, birlikda*

**Tadbirkorlik subyektlari soni** | **Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi**




Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning biriktirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog‘liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo‘jalik yurituvchi subyektlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma’lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta’minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.

# Yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar to'g'risida ma'lumot

*2024- yil yanvar holatiga ko'ra, birlikda*

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

24 — 2,3 %



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

50 — 1,2 %



Sanoat

13 — 0,6 %



Qurilish

206 — 2,2 %



Savdo

17 — 1,3 %



Tashish va saqlash

27 — 3,2 %



Yashash va ovqatlanish

21 — 3,6 %




Axborot va aloqa

19 — 2,9 %



Sog'liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

46 — 2,0 %



Boshqa turlar

**Mas'uliyati cheklangan jamiyati** – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'liyuldilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalari qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

## Hududlar kesimida

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| Farg'ona shahar | 87 | 2,1 % | Oltiariq tumani | 17 | 1,6 % |
| Qo'qon shahar | 55 | 1,7 % | O'zbekiston tumani | 16 | 1,5 % |
| Qo'shtepa tumani | 28 | 3,0 % | Farg'ona tumani | 16 | 1,9 % |
| Uchko'prik tumani | 27 | 2,3 % | Furqat tumani | 14 | 2,8 % |
| Marg'ilon shahar | 26 | 1,2 % | Yozyovon tumani | 11 | 1,8 % |
| Quvasoy shahar | 24 | 2,8 % | Beshariq tumani | 7 | 1,1 % |
| Quva tumani | 23 | 2,3 % | Bag'dod tumani | 6 | 1,1 % |
| Buvayda tumani | 20 | 2,4 % | Rishton tumani | 6 | 1,3 % |
| Toshloq tumani | 19 | 1,6 % | So'x tumani | 2 | 0,5 % |
| Dang'ara tumani | 19 | 1,7 % | | | |

# Faoliyat ko‘rsatayotgan mas’uliyati cheklangan jamiyatlar to‘g‘risida ma’lumot

*2024- yil 1- fevral holatiga ko‘ra, birlikda*

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o‘sish sur’ati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

1 056

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

4 249

Sanoat

2 353

Qurilish

9 350

Savdo

1 349

Tashish va saqlash

835

Yashash va ovqatlanish

578


Axborot va aloqa

657

Sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

2 354

Boshqa turlar

2024- yil 1- fevral holatiga ko‘ra faoliyat ko‘rsatayotgan 36,0 mingta tijorat korxona va tashkilotlarining 22,8 mingtasi mas’uliyati cheklangan jamiyatlar ulushiga to‘g‘ri keladi. Mazkur jamiyatlar viloyatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi.

Sohalar kesimida o‘sish sur’atlarining tahlili shuni ko‘rsatdiki, eng yuqori ko‘rsatkich sanoatda – 122,2 foiz, qishloq,o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – 122,1 foiz, qurilishda – 120,1 foiz, axborot va aloqada – 116,3 foizni tashkil etdi.

## Hududlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Fatg‘ona shahar | 4 126 | Farg‘ona tumani | 870 |
| Qo‘qon shahar | 3 144 | Quvasoy shahar | 858 |
| Marg‘ilon shahar | 2 227 | Buvayda tumani | 844 |
| Uchko‘prik tumani | 1 199 | Beshariq tumani | 637 |
| Toshloq tumani | 1 194 | Yozyovon tumani | 628 |
| Dang‘ara tumani | 1 142 | Bag‘dod tumani | 531 |
| Oltiariq tumani | 1 050 | Furqat tumani | 500 |
| O‘zbekiston tumani | 1 041 | Rishton tumani | 450 |
| Quva tumani | 998 | So‘x tumani | 397 |
| Qo‘shtepa tumani | 945 | | |

# Yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar to‘g‘risida ma’lumotlar

2024- yil yanvar holatiga ko‘ra, birlikda




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



1 — 0,3 %

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi



4 — 0,3 %

Sanoat



1 — 0,2 %

Qurilish



22 — 0,7 %

Savdo



3 — 0,5 %

Yashash va ovqatlanish



3 — 1,0 %

Sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish



2 — 0,2 %

Boshqa turlar

**Xususiy korxona** – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e’tirof etiladi. Xususiy korxona tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

Xususiy korxona o‘z mulkida alohida mol-mulkka ega bo‘ladi, o‘z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo‘lishi hamda ularni amalga oshirishi, majburiyatlarni bajarishi, sudda da’vogar va javobgar bo‘lishi mumkin.

2024- yil yanvar oyida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni 2023- yilning mos davriga nisbatan 3 taga kamaygan.

## Hududlar kesimida

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| Farg‘ona tumani | 6 | 1,2 % | Marg‘ilon shahar | 3 | 0,5 % |
| Farg‘ona shahar | 6 | 0,5 % | Qo‘shtepa tumani | 1 | 0,5 % |
| Bag‘dod tumani | 4 | 0,8 % | Beshariq tumani | 1 | 0,3 % |
| Oltiariq tumani | 3 | 0,7 % | Quva tumani | 1 | 0,2 % |
| Buvayda tumani | 3 | 0,6 % | O‘zbekiston tumani | 1 | 0,4 % |
| Uchko‘prik tumani | 3 | 0,7 % | Furqat tumani | 1 | 0,5 % |
| Rishton tumani | 3 | 0,8 % | | | |

# Faoliyat ko‘rsatayotgan xususiy korxonalar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2024- yil 1- fevral holatiga ko‘ra, birlikda*

Yillar kesimida soni — Yillar kesimida o‘sish sur’ati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

332

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

1 493

Sanoat

497

Qurilish

3 318

Savdo

117

Tashish va saqlash

649

Yashash va ovqatlanish

265


Axborot va aloqa

313

Sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

864

Boshqa turlar

2024- yil 1- fevral holatiga ko‘ra, faoliyat ko‘rsatayotgan xususiy korxonalar soni so‘ngi besh yilda 89,1 foizni tashkil etdi.

Xususiy tadbirkorlik subyektlari o‘sish sur’atlarining so‘ngi besh yilga nisbatan ko‘payishiga sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko‘rsatish (119,5 foiz), savdo (113,1 foiz), yashash va ovqatlanish (105,9 foiz), hududlar kesimida esa – Farg‘ona tumani (167,1 foiz), Rishton (150,0 foiz), Quva (137,5 foiz) va Bag‘dod (133,2 foiz) tumanlari ta’sir ko‘rsatmoqda.

## Hududlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Farg‘ona shahar | 1 239 | Toshloq tumani | 348 |
| Marg‘ilon shahar | 632 | Qo‘qon shahar | 340 |
| Bag‘dod tumani | 502 | Beshariq tumani | 311 |
| Buvayda tumani | 492 | Quvasoy shahar | 269 |
| Farg‘ona tumani | 488 | Dang‘ara tumani | 251 |
| Quva tumani | 462 | O‘zbekiston tumani | 226 |
| Oltiariq tumani | 459 | Furqat tumani | 220 |
| So‘x tumani | 445 | Qo‘shtepa tumani | 198 |
| Uchko‘prik tumani | 415 | Yozyovon tumani | 167 |
| Rishton tumani | 384 | | |

# Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar to‘g‘risida ma’lumotlar

2024- yil yanvar holatiga ko‘ra, birlikda




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

1
0,5 %

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

30
1,7 %

Sanoat

33
2,0 %

Savdo

1
1,2 %

Tashish va saqlash

13
1,8 %

Yashash va ovqatlanish

1
1,3 %

Sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

4
1,2 %

Boshqa turlar

**Oilaviy korxona** – uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxona ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo‘lgan umumiy mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxona ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektidir. Oilaviy korxona faoliyati uning ishtirokchilari shaxsiy mehnatiga asoslanadi va tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.

## Hududlar kesimida

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| Oltiariq tumani | 9 | 2,0 % | Qo‘qon shahar | 4 | 1,1 % |
| Rishton tumani | 9 | 1,7 % | Buvayda tumani | 3 | 1,7 % |
| O‘zbekiston tumani | 8 | 2,8 % | Uchko‘prik tumani | 3 | 1,3 % |
| So‘x tumani | 6 | 4,7 % | Yozyovon tumani | 3 | 4,7 % |
| Farg‘ona tumani | 6 | 2,8 % | Qo‘shtepa tumani | 2 | 1,3 % |
| Farg‘ona shahar | 6 | 1,2 % | Bag‘dod tumani | 2 | 0,8 % |
| Toshloq tumani | 5 | 2,8 % | Dang‘ara tumani | 2 | 0,7 % |
| Marg‘ilon shahar | 5 | 1,7 % | Furqat tumani | 1 | 0,5 % |
| Beshariq tumani | 4 | 2,0 % | Quvasoy shahar | 1 | 0,4 % |
| Quva tumani | 4 | 2,3 % | | | |

# Faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2024- yil 1- fevral holatiga ko‘ra, birlikda*




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

**206**

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

**1 775**

Sanoat

**53**

Qurilish

**1 684**

Savdo

**84**

Tashish va saqlash

**719**

Yashash va ovqatlanish

**26**


Axborot va aloqa

**77**

Sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

**327**

Boshqa turlar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tib, faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalar soni so‘ngi besh yilda 2 042 taga ko‘paygan.

Bu esa quyidagi sohalardagi korxonalar: savdoda – 453 tadan 1 684 taga (o‘sish 1 231 ta), sanoat – 1 373 tadan 1 775 taga (o‘sish 402 ta) soninig sezilarli oshishi bilan izohlanadi.

## Hududlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Rishton tumani. | 534 | Farg‘ona tumani | 212 |
| Farg‘ona shahar | 493 | Furqat tumani | 211 |
| Oltiariq tumani | 443 | Beshariq tumani | 205 |
| Qo‘qon shahar | 355 | Buvayda tumani | 180 |
| Dang‘ara tumani | 301 | Toshloq tumani | 178 |
| O‘zbekiston tumani | 291 | Quva tumani | 174 |
| Marg‘ilon shahar | 287 | Qo‘shtepa tumani | 149 |
| Bag‘dod tumani | 257 | So‘x tumani | 127 |
| Quvasoy shahar | 250 | Yozyovon tumani | 64 |
| Uchko‘prik tumani | 240 | | |

## Yangi tashkil etilgan chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot

*2024- yil yanvar holatiga ko'ra, birlikda*

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



3 1,2 %

Sanoat



1 2,9 %

Qurilish



1 0,9 %

Savdo



1 8,3 %

Sog'liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko'rsatish



1 2,8 %

Boshqa xizmatlar

**Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar** – korxonaning ustav jamg'armasida norezidentlar, chet el yuridik shaxslari (chet el firmalarining filial va bo'linmalari), chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar mulki ishtirokidagi korxonalar hisoblanadi.

## Hududlar kesimida

| | |
|---|---|
| Farg'ona shahar | 3 |
| Qo'qon shahar | 2 |
| Bag'dod tumani | 1 |
| Uchko'prik tumani | 1 |

# Faoliyat ko‘rsatayotgan chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumot

*2024- yil 1- fevral holatiga ko‘ra, birlikda*

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o‘sish sur’ati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi




Sanoat




Qurilish




Savdo




Tashish va saqlash




Yashash va ovqatlanish




Axborot va aloqa




Sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish




Boshqa turlar

Keyingi besh yilda chet el investitsiyasi ishtirokida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni 1,7 barobarga oshdi.

Yetakchi o‘rinni 123 ta korxonada to‘liq yoki qisman ulushi mavjud bo‘lgan Rossiya Federatsiyasi egallagan. Bu viloyatda chet el investitsiyasi ishtirokida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 24,5 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, Farg‘ona viloyati iqtisodiyotiga o‘z kapitalini kiritayotgan Janubiy Koreya (ulushi 7,0 foiz), Qirg‘iston (ulushi 5,6 foiz), Tojikiston (ulushi 3,6 foiz) va Qozog‘iston (ulushi 2,6 foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanishadi.

## Hududlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Farg‘ona shahar | 165 | Oltiariq tumani | 17 |
| Qo‘qon shahar | 59 | Bag‘dod tumani | 14 |
| Quvasoy shahar | 33 | Furqat tumani | 12 |
| Marg‘ilon shahar | 32 | Toshloq tumani | 11 |
| Uchko‘prik tumani | 26 | Rishton tumani | 10 |
| Beshariq tumani | 21 | Buvayda tumani | 7 |
| Quva tumani | 21 | So‘x tumani | 7 |
| O‘zbekiston tumani | 21 | Qo‘shtepa tumani | 5 |
| Farg‘ona tumani | 18 | Yozyovon tumani | 5 |
| Dang‘ara tumani | 18 | | |

# Davlatlar kesimida yangi tashkil etilgan chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar to‘g‘risida ma’lumot

*2024- yil yanvar holatiga ko‘ra, birlikda*

| Hududlar nomi | soni |
|---|---|
| Rossiya Federatsiyasi | 2 |
| Janubiy Koreya Respublikasi | 2 |
| Turkiya Respublikasi | 1 |
| Xitoy Xalq Respublikasi | 1 |
| Quvayt davlati | 1 |

O‘zbekistonda iqtisodiy o‘sishni jadallashtirish, xalqaro aloqalarni kengaytirish va to‘g‘ridan-to‘g‘ri chet el investitsiyalar uchun qulay huquqiy muhit yaratish bo‘yicha keng qamrovli iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar olib borilmoqda. Mamlakatning strategik geografik joylashuvi, boy va xilma-xil tabiiy resurslari o‘sish uchun ulkan imkoniyatlarni namoyon etadi. O‘zbekiston hukumati o‘z fuqarolarining farovonligini oshirish, biznesni rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishni rag‘batlantirish maqsadida, chet el investitsiyalarini ko‘paytirishga ustuvor ahamiyat bermoqda.

# Davlatlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar to‘g‘risida ma’lumot

*2024- yil 1- fevral holatiga ko‘ra, birlikda*

| Hududlar nomi | soni |
|---|---|
| Rossiya Federatsiyasi | 123 |
| Janubiy Koreya Respublikasi | 35 |
| Qirg‘iziston Respublikasi | 28 |
| Tojikiston Respublikasi | 18 |
| Qozog‘iston Respublikasi | 13 |
| Ozarbayjon Respublikasi | 9 |
| Belorussiya Respublikasi | 6 |
| Turkmaniston Respublikasi | 3 |
| Ukraina Respublikasi | 2 |
| boshqalar | 265 |

O‘zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlariga e’tibor berish, qo‘shni davlatlar bilan yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg‘araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda O‘zbekiston iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo‘lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag‘batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Shuningdek, chet el investitsiyasi ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalardan 253 tasi qo‘shma korxonalar, 249 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to‘g‘ri keldi.

# Hududlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy va qo‘shma korxonalar soni to‘g‘risida ma’lumot

*2024- yil 1- fevral holatiga ko‘ra, birlikda*

| xorijiy korxonalar | | qo‘shma korxonalar |
|---|---|---|
| 85 | Farg‘ona shahar | 80 |
| 36 | Qo‘qon shahar | 23 |
| 10 | Quvasoy shahar | 23 |
| 16 | Marg‘ilon shahar | 16 |
| 14 | Uchko‘prik tumani | 12 |
| 18 | Beshariq tumani | 3 |
| 12 | Quva tumani | 9 |
| 9 | O‘zbekiston tumani | 12 |
| 7 | Farg‘ona tumani | 11 |
| 11 | Dang‘ara tumani | 7 |
| 6 | Oltiariq tumani | 11 |
| 3 | Bag‘dod tumani | 11 |
| 7 | Furqat tumani | 5 |
| 5 | Toshloq tumani | 6 |
| 3 | Rishton tumani | 7 |
| 4 | Buvayda tumani | 3 |
| - | So‘x tumani | 7 |
| - | Qo‘shtepa tumani | 5 |
| 3 | Yozyovon tumani | 2 |

# Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan qo‘shma va xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni to‘g‘risida ma’lumot

*2024- yil 1- fevral holatiga ko‘ra, birlikda*

| Faoliyat turi | xorijiy korxonalar | qo‘shma korxonalar |
|---|---|---|
| Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi | 4 | 16 |
| Sanoat | 107 | 141 |
| Qurilish | 17 | 18 |
| Savdo | 71 | 43 |
| Tashish va saqlash | 10 | 5 |
| Yashash va ovqatlanish | 8 | 6 |
| Sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish | 7 | 5 |
| Axborot va aloqa | 5 | 3 |
| Boshqa turlar | 20 | 16 |

So‘nggi yillarda O‘zbekiston iqtisodiyotni jadal o‘zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes va sarmoyaviy to‘siqlarni bartaraf etishda qat’iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko‘proq e’tirof etilmoqda.

Demak, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining ko‘payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog‘liq.

**Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri** – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma’lumotlardan iborat bo’lgan axborot-ma’lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta’minlaydi.

**Ro‘yxatga olingan** – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrida mavjud bo‘lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko‘rsatayotgan** – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshiriyulotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to‘g‘risidagi ma’lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

**Yangi tashkil etilgan** – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

**Yuridik shaxslarning faollik darajasi** – ma’lum bir davrda faoliyat ko‘rsatiyulotgan yuridik shaxslarning jami ro‘yxatdan o‘tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

**Kichik korxona va mikrofirmalar** – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- dekabrdagi “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o‘tish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo‘lgan korxonalar va tashkilotlar.

**Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar** – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo‘limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma’lumotlar bazasi asosida 2024- yil 1- fevral holatiga ko‘ra (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) shakllantirildi.








# Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Statistika agentligining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, soʻralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qoʻyilgan.

Statistik registrlarni yuritish
va tizimli xizmat
koʻrsatish boʻlimi
Tel.:(73) 244-65-76